

O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TURIZMNING TUTGAN O'RNI

Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi
Namangan davlat universiteti, iqtisodiyot
fakulteti, mehmonxona xo'jaligini tashkil etish
va boshqarish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Hozirgi kunda har qaysi davlat uchun muhim bo'lgan masalalardan biri aholi turmush darajasini oshirish hisoblanadi. Albatta har qaysi mamlakat birinchi navbatda xalq manfaati va uning yaxshi sharoitlarda yashashi uchun xizmat qiladi. Davlatning rivojlanishi va uning boyligi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga va shuningdek xizmatlar sohasi ya'ni turizm istiqboli omiliga ham bog'liq hisoblanadi. Hozirgi vaqtlarda insonlarning boshqa mamlakatlarga turli xil maqsadlarda tashrif buyurishi ortmoqda. O'zbekistonda ham turizm iqtisodiy rivojlanishimizga ta'sir ko'rsatib kelayapgan va rivojlanayapgan sohalarda ichida oldingi o'rinlarda turibdi.

«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim» [1].

Albatta turizm insonlarni ish bilan ta'minlabgina qolmay barcha tarmoqlarning rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi paytda odamlarning ko'pchiligi aynan turizm yaratgan ish o'rinlari bilan band hisoblanadi. Statistik hisobotlarda ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Turizm dunyodagi eng yirik sohalardan biridir. WTTC ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyadan oldin turizm dunyo bo'ylab yaratilgan barcha yangi ish o'rinlarining $\frac{1}{4}$ qismini, barcha ish o'rinlarining 10,3 foizini (333 million) va global yalpi ichki mahsulotning 10,3 foizini (9,6 trillion AQSh dollari) tashkil etgan. Yuqoridagi statistik ma'lumotlarni inobatga olgan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bu soha xalqlar uchun asosiy iqtisodiy dvigatellardan biri bo'lib, iqtisodiyot va aholi bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda. Ammo turizm shunchalik ko'p ish o'rinlarini qanday qilib yaratishi mumkin? [2]

O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak ayniqsa tabiat qo'ynida tashkil etilgan turistik dam olish zonalarimizda qanchadan qancha odam o'zini o'zi band qilyapti. U yerda savdo-sotiq, mehmonxona xizmatlari, ovqatlanish joylari va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari o'z xizmatlarini turistlarga taqdim etishlari mumkin bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, jahon YaIM ning to'rtidan uch qismi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi, ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi boshqa tarmoqlar orasida eng yuqori o'rinda turadi. Shu sababli, mehmondo'stlik kompaniyalari kabi xizmat ko'rsatish sohasidagi har qanday tashkilotning raqobatbardoshligi, samaradorligi va moslashuvchanligini oshirish juda muhimdir.[3]

Aholining turmush darajasi ayniqsa mamlakatning chekka hududlarida pastroq ko'rsatkichlarida turishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu hududlarda turizmning qishloq sharoitida tashkil qilsa bo'ladigan yo'nalishlaridan biri qishloq turizimni keng yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Chunki qishloq sharoitida tabiat in'om etgan tabiiy resurslarimiz bizning yurtimizda ko'plab topiladi. asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholiga hozirgi kunga kelib ekologik muammolardan biri suv tanqisligi muammo keltirib chiqaryapti.

O'z faoliyati uchun imkoniyatlari pasayib va shu bilan birga aholining daromadlari ham pasayishi holatlari uchramoqda. buning uchun biz tabiat qo'ynida turistik markazlarni tashkil qilishimiz mumkin. Bu bilan aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi oshib albatta iqtisodiyotimizda ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar vujudga keladi. Kichik bir turistik dam olish maskanlarining qishloq hududida vujudga kelishi uning yon atrofida savdo do'konlari, uy mehmonxonalari va boshqa xizmat ko'rsatish sohasining ham rivojlanishiga sababchi bo'ladi. O'z o'zini band qilgan tadbirkorlar ham ko'payadi, qaysidir ma'noda aholining farovonlik darajasiga ham o'zining ijobiy ta'sirini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2018-yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatidan.

2. Izabela Soja tomonidan 2022-yil 7-oktabrda yozilgan. *Uncategorized*.
<https://www.solimarinternational.com/10-of-jobs-are-worldwide-connected-to-the-tourism-industry-what-does-that-mean/>

3. Muminov Obidkhon Norkhujaevich. (2023). *Increasing tourist attraction to uzbekistan in digital economy period by enhancing service qualit. European Journal of Research Development and Sustainability*, 4(1), 13-1